SAID AHMADNING “UFQ” TRILOGIYASIDA XUSHMUOMALALIK BIRLIKLARINING BADIIY-PRAGMATIK IFODALANISHI

Shokirova Mohinur

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida qo‘llanilgan xushmuomalalik birliklari, nutq etiketlari va andisha iboralari badiiy-pragmatik hamda lingvokultrologik jihatdan tadqiq etilgan. Asarning 12–20-sahifalaridan saralab olingan 70 ta jonli misol va obrazlararo muloqotlar asosida o‘zbek xalqining milliy muloqot madaniyati, oilaviy munosabatlardagi ehtirom, ijtimoiy muomala qoidalari hamda nutqiy etiketning xarakter yaratishdagi o‘rni sodda va tushunarli tarzda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xushmuomalalik prinsipi, nutq etiketi, pragmalingvistika, “Ufq” romani, Said Ahmad, murojaat birliklari, evfemizm, andisha, kinestik etiket, antiteza.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida til birliklarini faqatgina grammatik qoidalar doirasida emas, balki ularning jonli muloqot jarayonida, ijtimoiy muhitda va inson psixologiyasida tutgan o‘rnini o‘rganuvchi pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvokultrologiya sohalari jadal rivojlanmoqda. Har bir millatning o‘ziga xos muloqot madaniyati, andisha me’yorlari va o‘zaro hurmatni ifodalash usullari mavjud bo‘lib, ular tilda xushmuomalalik birliklari (nutq etiketlari) sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyot — xalq nutq madaniyatini, uning lisoniy va milliy o‘ziga xosligini eng yuqori darajada aks ettiruvchi ko‘zgudir. Badiiy matnda xushmuomalalik birliklarining qo‘llanilish mahoratini tadqiq etish qahramonlar xarakterini ochish, davr va muhit koloritini yaratish hamda muallifning maqsadini tushunish nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarbdir. Atoqli yozuvchi Said Ahmadning o‘zbek xalqining urush arafasi va urush yillaridagi hayoti, milliy xarakteri hamda beqiyos til boyligini o‘zida mujassam etgan mashhur “Ufq”

trilogiyasi (1964–1974) ushbu lisoniy birliklarga nihoyatda boy manba hisoblanadi.

Tilshunoslikda xushmuomalalik kategoriyasini ilmiy jihatdan o‘rganish jahon tilshunoslari P. Braun, S. Levinson va J. Lichlarning nazariyalariga borib taqaladi. Ular xushmuomalalikni muloqotdagi ikki asosiy yo‘nalishga ajratadilar:

• Ijobiy xushmuomalalik (yaqinlik ko‘rsatish): Suhbatdoshga mehr bildirish, uni maqtash, erkalash va hamdardlik ko‘rsatish usuli. "Ufq" romanida Jannat xolaning o‘g‘liga qarata "bolaginam", "onangning o‘rgilsini" deb murojaat qilishi bunga yorqin misoldir.

• Salbiy xushmuomalalik (andisha saqlash): Suhbatdoshning ko‘ngliga tegmaslik, e’tiroz yoki rad javobini yumshatib yetkazish va hurmat masofasini saqlash usuli. Asarda "Qo‘ying, dadasi", "istixola qilib" kabi birliklar aynan shu vazifani bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiket va muloqot odobi N. Mahmudov, Sh. Safarov, S. Mo‘minov va M. Hakimov kabi olimlarning ishlarida chuqur o‘rganilgan. Xususan, S. Mo‘minov o‘zbek muloqot xulqining o‘ziga xos milliy belgisi sifatida andisha, yoshi ulug‘larni e’zozlash va noqulay so‘zlarni yumshatib aytish (evfemizm) tamoyillarini alohida ta’kidlaydi.

Badiiy matnda xushmuomalalik birliklari yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqib, turli vazifalarni bajaradi. “Ufq” trilogiyasining 12, 13, 14, 15, 17, 18, 19 va 20-sahifalaridan saralab olingan 70 ta gapni mazmuniy jihatdan to‘rtta asosiy guruhga bo‘lib tahlil qilamiz:

1. Murojaat birliklari va oilaviy erkalash etiketlari:

Murojaat shakllari qahramonlarning jamiyatdagi o‘rni, yoshi va oilaviy yaqinligini darhol ko‘rsatib beradi. O‘zbek onalariga xos mehr va erkalamoq iboralari matnning ta’sirchanligini oshiradi:

1. “— Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Tura qol, jon bolam, onangning o‘rgilsini!” (12-bet) — “Jon bolam”, “onangning o‘rgilsini” (oliy darajadagi erkalash va lutf).

2. «Jannat uning boshini silaydi. — Tursunboy, bolaginam, tursang-chi,

ponushtang sovib qoldi. Dadang kutib qoldi.» (12-bet) — kichraytirish-erkalash qo‘shimchasi (-ginam) va oilada otaning hurmatini eslatish odobi.

3. “— Ha, umringdan baraka topgur-a, tursang-ku, bo‘lardi-ya.” (12-bet) — iltimosni yumshatish uchun ishlatilgan xalqona duo iborasi.

4. “Tezroq tur! Dadangning oldiga o‘zim boraman. So‘ridagi ponushtangni tovuq cho‘qib ketmasin.” (12-bet) — farzandni otaning dakakisidan asrash g‘amxo‘rligi.

5. “— Bolamga qattiq gapirmang. U nimani biladi, yosh bola-ku. Esi kirib qolar, dadasi.” (13-bet) — “dadasi” (eriga hurmat ma’nosidagi an’anaviy murojaat).

6. “Shu bittagina Tursunboy ularning quvonchi bo‘lib o‘sardi. Bolaga ular shamolni ham ravo ko‘rmasdilar.” (13-bet) — farzandga bo‘lgan cheksiz mehribonlik ifodasi.

7. “Ikrom to‘y-hashamlarga borsa bironta qandmi, konfetmi, yaxshi niyat bilan, bolamni ham shu kunlarga yetkazsin, deb kissasiga solib kelardi.” (13-bet) — ota-onaning ezgu niyati va duo odati.

8. “Ular ardoqda bolalarini ana shunday, butun umrlarini, rohat-farog‘atlarini bag‘ishlab o‘stirishgan edi.” (13-bet) — “ardoqda” (farzandni e’zozlash ifodasi).

9. “— Bolam, onangga jindek qaynatma sho‘rva qilib ber. Men hozir dalaga ketaman.” (14-bet) — otaning o‘g‘liga buyruq emas, samimiy iltimos ohangida murojaati.

10. “— Qo‘ying,— dedi xotini.— Qo‘liga pichoq bermang, et-betini kesib olmasin, bolam. U-buni keltirishib bering, o‘zim sekin to‘g‘rab beraman.” (14-bet) — eriga **"siz"**lab andishali e’tiroz bildirish.

11. “Jannat o‘g‘lini peshonasidan silab pichirladi: — Tokchada qaymoq bor, dasturxonga non o‘rab qo‘yganman, choyingni ich, bolaginam.” (14-bet) — taom uzatish va suyish lutfi.

12. “U shunday dediyu o‘g‘lining javobini ham kutmay inqillab o‘rnidan turdi. Bolasining oldiga dasturxon yozib ponushta qo‘ydi.” (14-bet) — oilaviy mehmondo‘stlik belgisi.

13. “Ona hamon bolasidan ko‘z uzmay allaqanday shirin xayollar og‘ushida tebranib-tebranib o‘tirardi.” (14-bet) — onaning farzandi kelajagi haqidagi ezgu o‘ylari.

14. “— Och-nahor borasizmi, qatlama qilgan edim, bir tishlam bo‘lsa ham tamaddi qilib oling.” (14-bet) — erini och qo‘ymaslik g‘amxo‘rligi.

15. “— Ha, bolaginang ko‘paygur-a, bu nima qiliq, hali ham yotibsanmi? Mana, bormaganingdan dadangning nonushta kutib-kutib, och-nahor qishloqqa tushib ketibdi.” (14-bet) — jahl ustida ham qarg‘amay, ijobiy duo ishlatish.

16. “Shunaqa ham bo‘ladimi, bolangdan aylanay.” (14-bet) — tanbeh ichidagi onalik lutfi.

17. “— Dadang o‘shaqqa ketdilar. Sen ham choyingni ichib o‘shaqqa bor.” (14-bet) — otaga nisbatan fe’lning hurmat ko‘pligida (ketdilar) qo‘llanishi.

18. “— Voy bolam, bu odam bolasining bir-biridan qolar-a. Butun uch qishloq buvangnikiga yig‘ilyapti.” (15-bet) — oilaviy yaqinlik ohangi.

19. “— Xo‘p, xo‘p, bolam. Endi gapirmayman. Borsang yaxshi bo‘lardi. Hamma o‘rtoqlaring o‘sha yerda.” (15-bet) — o‘g‘lining achchiqlanishiga javoban vaziyatni yumshatish.

20. “— Choy ichmading-ku, choyginangni ichmading-ku, tentagim.” (15-bet) — erkalab koyish shakli (tentagim).

21. “— Ha, tentak-a! Quyilib qolarmikin, ishqilib!” (19-bet) — otaning o‘g‘liga mehr bilan aytgan xalqona erkalash iborasi.

22. “Agar urishmaydi, qo‘rqovuch. Ha, ishqilib omon bo‘lsin!” (19-bet) — ota-onaning farzandiga tilaydigan an’anaviy duosi.

Asarda xalqning yoshi ulug‘ insonlarga va Yo‘ldosh Oxunboboyev kabi rahbarlarga bo‘lgan cheksiz hurmati milliy murojaatlar orqali gavdalantirilgan:

23. “— Keyin, keyin. O‘zim eshikka boraman. Yo‘ldosh ota kelibdilar. Meni yo‘qlatgan ekanlar, boray.” (14-bet) — “Yo‘ldosh ota” murojaati va chaqiriqni ehtirom bilan bajarish.

24. “— Keyin aytib beraman, xotin. Gap ko‘p. Zo‘r ishlar bo‘ladiganga o‘xshaydi. Boray-chi, otaning o‘zlari aytib qolarlar. O‘z og‘izlaridan eshitay.” (14-

bet) — “otaning o‘zlari” (yuksak ehtirom ifodasi).

25. “Oxunboboyev ota ham kelibdilar.” (15-bet) — davlat arbobiga nisbatan xalqona samimiy murojaat.

26. «To‘p-to‘p odam orasida shivir-shivir boshlandi. — Ota kelyaptilar. Yo‘ldosh ota kelyaptilar, degan gap og‘izdan-og‘izga otdi.» (15-bet) — el hurmatining fe’l ko‘pligida aks etishi.

27. «Qachon Farg‘ona tomonlarga yo‘l tushsa, albatta uni bir ziyorat qilib, duosini olib o‘tardi.» (17-bet) — keksalarni ziyorat qilish va duo olish odobi.

28. «Bu cholni butun yurt izzat qilardi. To‘yu ma’rakalar usiz o‘tmasdi.» (17-bet) — el-yurt orasidagi yuksak ijtimoiy e’zoz.

29. «Nikoh to‘ylarida kelin bilan kuyovni uning oldiga olib kelib salom berdirishardi.» (17-bet) — kelinlik salomi va tabarruk zotdan fotiha olish etiketi.

30. «Yangi farzand ko‘rganlar albatta chaqaloqni uning tizzasiga qo‘yib olishardi.» (17-bet) — chaqaloqqa uzoq umr tilash niyatidagi ramziy hurmat.

31. “— Ummatali amaki, tez uyga borarkansiz.” (17-bet) — yoshi ulug‘ qishloqdoshga qarindoshlik so‘zi (amaki) bilan murojaat qilish.

32. “— O‘g‘lingiz mahallani boshiga ko‘tarib arabakashlar bilan mushtlashayapti.” (17-bet) — suhbatdoshning farzandini hurmat bilan “O‘g‘lingiz” deb tilga olish.

33. “— Rasul buvaning ukasi bilan biz Eshonto‘pi qishlog‘ida choraqorlik qilardik. Atain Zirillamadan bizni yo‘qlab borardi.” (19-bet) — marhumga hurmat (Rasul buva) va qadrdonlik etiketi.

34. “To‘nganini berib yana piyoda orqasiga qaytib ketardi. O‘tgan yili Toshkentga nevarasini etaklab boribdi.” (19-bet) — avlodlararo g‘amxo‘rlik ifodasi.

35. “Ishga kelsam eshikda kutib turgan ekan: «Shuni o‘qitib, menga odam qilib ber. Bittasi ilmli bo‘lsin», deb iltimos qilib qoldi. Joylab qo‘ydim.” (19-bet) — iltimos etiketi va yaxshilik ko‘rsatish odobi.

36. “— Ha, — dedi Raimberdi, — do‘xtirlikka kiritib qo‘ygan ekansiz. Hozir shu yerda, kanikulga kelgan.” (19-bet) — qilingan yaxshilikni el ichida e’tirof etish

lutfi.

37. «Shu payt, Tog'a kelyapti, Tog'aning o‘zi kelyapti, degan shivir-shivir bo‘lib qoldi.» (19-bet) — rahbarga nisbatan xalqona yaqinlik murojaati (Tog'a).

38. «Raimberdi toga ham o‘zini tutolmay kulib yubordi.» (20-bet) — qishloq oqsoqoliga nisbatan hurmat murojati.

O‘zbek nutq madaniyatida noqulay, og‘ir yoki shaxsiy hayotga daxldor tushunchalarni yumshatib aytish (evfemizm) va andisha saqlash muhim o‘rin tutadi:

39. “— Esing joydami, og‘ir oyoq odam o‘tib yoradimi?! O‘g‘lingga aytsang bo‘lmasmidi.” (13-bet) — homilador ayolga nisbatan “og‘ir oyoq odam” iborasi.

40. “— Tursunboyingiz uxlabdi. Kechasi kech qaytgan edi. Uyg‘otgim kelmadi. Rasul buva olamdan o‘tibdilar.” (13-bet) — o‘lim so‘zi o‘rniga “olamdan o‘tibdilar” deyish odobi.

41. “— Uxlab ham shunchalik bo‘ladi-da. Rasul buvang ham olamdan o‘tibdilar.” (14-bet) — ta’ziya xabarini yumshatib yetkazish.

42. “Rahmatli, qandoq tabarruk odam edilar. Yuz yoshga kiraman, deb turgan edilar.” (15-bet) — vafot etgan insonga nisbatan “Rahmatli”, “tabarruk” sifatlari.

43. “— Sakkiz o‘g‘il, bir qiz, o‘ttiz sakkiz nevara ko‘rgan. Yolg‘iz qizini ko‘p yaxshi ko‘rardi, bechora.” (15-bet) — marhumga hamdardlik va achinish birligi (bechora).

44. “— Voy tavba,— dedi Jannat.— Hukumat ham suv keltirsin, ham haqini to‘lasin, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan zamonlar bo‘lyapti.” (14-bet) — ayollarga xos hayrat va andisha iborasi.

45. «U yuzining ko‘cha tarafidagi darvozaning bir tabaqasini chiqazib ko‘cha o‘rtasida qorniga qo‘yib yotib opti.» (18-bet) — hovlining bosh qismiga nisbatan yumshatib aytish (yuzining).

46. «Yigit aytib bo‘lmaydigan gapni tildan chiqazishga istixola qilib, atrofdagilarga qarab oldi.» (20-bet) — noqulay gapni aytishdan tortinish (istixola qilib).

47. “— Bu yaramas tong sahardab devor oshib, qo‘rg‘onga tushibti.” (20-bet)

— oila xonadonini ulug‘lab “qo‘rg‘on” deb atash.

48. “— O‘g‘rilik qilsa ming marta rozi edim-a! Singlimning qo‘yniga kirmoqchi bo‘lib endi ko‘rpani ko‘tarayotgan ekan.” (20-bet) — oilaviy nomus va or-andisha daxlsizligi.

49. “Yaxshiyam toleimga peshobga uyg‘onib qoldim. Kuyovga bo‘lishib qo‘yganmiz-a! To‘rt kundan keyin to‘y.” (20-bet) — bo‘lajak qarindoshlik majburiyatiga rioya qilish.

50. “— Yomon niyating bo‘lmasa qora saharda devor osharmiding. Nima, xumor bo‘lib nos so‘ragani devor osharmiding. Nos so‘rab ko‘rpa qatini ko‘targanmiding?” (20-bet) — shaxsiy hayot daxlsizligini ifodalovchi andishali birikma (ko‘rpa qati).

51. «Qo‘q saharda birovning pardali qizida nima ishi bo‘lishi mumkin.» (20-bet) — bo‘y qizlarning iffati va hayosini ulug‘lovchi yuksak ibora (pardali qiz).

Badiiy matnda xushmuomalalik nafaqat so‘zlar, balki tana harakatlari, imo-ishoralar va sukut saqlash orqali ham ifodalanadi:

52. «Pashshaxona chetini ko‘tarib o‘g‘liga allaqanday mehr bilan qaradi.» (12-bet) — nigoh orqali mehr ifodasi.

53. «Yoniga chorlab achchiq ko‘k choy quyib berar, ketayotganda rayhondan bitta shox sindirib qo‘liga tutardi.» (13-bet) — mehmondo‘stlikning amaliy ko‘rinishi.

54. «Xotin janozaga to‘planayotgan kishilar oldidan bosh egib o‘tib ketdi.» (13-bet) — motam marosimida bosh egib andisha saqlash.

55. «U ko‘cha eshigiga yo‘l olarkan, ona allaqanday, sira ta’riflab bo‘lmaydigan mehr bilan orqasidan qarab qoldi.» (15-bet) — onalik mehrining harakatdagi ifodasi.

56. «Agar u guzardan xassasini do‘qillatib o‘tib qolsa hamma barobar qalqib turib, u o‘tib ketguncha ta’zimda turardi.» (17-bet) — keksalar o‘tayotganda o‘rnidan turish va ta’zimda turish etiketi.

57. «Savobdan quruq qolmay deb o‘tkinchi arabakashlar ot-aravalarini tor ko‘chada qoldirib, tobut dastasini elkaga olib, yarim yo‘lgacha bo‘lsa ham kuzatib

qo‘yaylik, deb ketgan edilar.» (17-bet) — marhumga oxirgi hurmatni bajo keltirish burchi.

58. «Azizxon dadasiga betma-bet kelolmasdi.» (18-bet) — farzandning otaga tik boqmaslik odobi.

59. «Har qanday to‘polon qilmasin, har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko‘ziga qarasa shashtidan qaytar, churq etib og‘iz ochmasdi.» (18-bet) — otaning haybati qarshisida so‘zsiz itoatkorlik.

60. «Ummatali o‘g‘liga xo‘mrayib qaragan edi, Azizxon giring demay darvozani azot ko‘tardi.» (18-bet) — birgina qarashdan xatosini tushunib itoat etish.

61. «Lalanglab borib bir intilishda joyiga ilib qo‘ydi. Keyin indamay uyga kirib ketdi.» (18-bet) — ota qarshisida gap qaytarmaslik andishasi.

62. «Ummatalini ko‘rib yig‘ilgan bolalarga qichqirdi: — Borlaring, tuqqanlaringning oldiga jo‘nalaring. Tomosha tamom!» (18-bet) — kattalar kelganda ko‘chadagi tartibsizlikni to‘xtatish.

63. «Davra orasini yorib kolxoz raisi Raimberdi To‘xtaboyev kirdi.» (19-bet) — rahbar va oqsoqolga jamoat orasida yo‘l bo‘shatish hurmati.

64. «Ko‘cha betida birov cho‘kkalagan, birov tik turgan, chol o‘tiradigan supada ikki-uch qariya bosh egib tek qotishgan edi.» (19-bet) — ta’ziyadagi sukut va hamdardlik etiketi.

65. «Oxunboboyev bir chetda tizzaladi. Ma’raka egasiga imlab, yuqoriga olinglar, degan ishora qilishdi.» (19-bet) — aziz mehmonni to‘rga taklif qilish imo-ishorasi.

66. «Ammo Oxunboboyev joyidan jilmadi. Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib uzr ishorasini qildi.» (19-bet) — qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib kamtarlik bilan rad etish (oliy harakatli etiket).

67. «Raimberdi uni qo‘ltig‘idan olib turgizdi-da, supaga, qariyalar oldiga o‘tkazdi.» (19-bet) — yoshi ulug‘ mehmonga amaliy izzat-ikrom ko‘rsatish.

68. «Dalaga, g‘oza chopig‘iga ketayotgan kolxozchilarning hammasi janozaga kelishgan. Ularning ketmonlari, non tugilgan qiniqlari yonlarida.» (19-

bet) — mahalla va jamoat oldidagi insoniy burchga rioya qilish.

69. «Yo‘llardagi samovarlarda ertalabki nonushtaga chiqqan choyxo‘rlar gur etib turishar, sartaroshxonadagilar, do‘kondagilar ishlarini, pullariyu qimmatbaho buyumlarini tashlab, tobut dastasini elkaga olishardi.» (19-bet) — marhumga oxirgi hurmatni bajo keltirish odobi.

70. «Oxunboboyev ham navbatma-navbat dastani elkaga olar, marhum siymosida o‘z otasini eslardi.» (19-bet) — rahbarning xalq bilan teng bo‘lib ta’ziyada qatnashish madaniyati.

Said Ahmad “Ufq” trilogiyasida xushmuomalalik birliklarini shunchaki nutq bezagi sifatida emas, balki asarning bosh g‘oyasini ochuvchi dramaturgik vosita darajasiga ko‘targan. Yozuvchi qahramonlarning ma’naviy dunyosini ko‘rsatishda ijobiy lutf va etiketning buzilishi (antiteza) usullaridan mahorat bilan foydalanadi.

Asarda Ikromjon, Jannat xola va Tursunboy o‘rtasidagi muloqotlarda xushmuomalalik birliklari qahramonlarning axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi:

Ota-onaning cheksiz sabri va lutfi: Ikromjon va Jannat xola farzandlari Tursunboyga murojaat qilganda doimo eng shirin, yurakni erituvchi so‘zlarni (bolaginam, jon bolam, onang aylansin, umringdan baraka topgur) tanlaydilar. Hatto Tursunboy xato qilganda ham ona unga qattiq gapirmaslik uchun eriga "Bolamga qattiq gapirmang, yosh bola-ku, esi kirib qolar, dadasi" deb iltimos qiladi. Bu o‘zbek ayolining oilada tinchlik va mehrni saqlash uchun qo‘llaydigan yuksak muloqot strategiyasidir.

Xoinlik va nutqiy qo‘pollikning bog‘liqligi: Tursunboy urushdan qochib kelib, Vataniga va oilasiga xiyonat qilganidan so‘ng, uning nutqidan barcha xushmuomalalik va andisha birliklari yo‘qoladi. U onasiga qo‘pol ohangda "Bo‘ldi, ko‘p gapiravermang, miyamni achitib yubordingiz" (15-bet) deb jerkib beradi. Yozuvchi bu yerda lingvistik kontrast yaratadi: onaning "Xo‘p, xo‘p, bolam, endi gapirmayman" degan muloyim javobi bilan o‘g‘ilning dag‘al muomalasi yonma-yon qo‘yilib, Tursunboyning ma’naviy tubanlashuvi yanada yaqqolroq ko‘rsatiladi.

Trilogiyaning keyingi qismlarida yoshlar o‘rtasidagi muhabbat va oilaviy munosabatlar tasvirida ham xushmuomalalikning o‘ziga xos sharqona ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi:

• Nizomjon va Dildor muloqotidagi andisha: Yoshlar bir-biriga bo‘lgan chuqur muhabbatini ochiq-oydin, balandparvoz so‘zlar bilan emas, balki ko‘z qarashlari, yarim jumlalar, sukut va kichik iltifotlar orqali izhor qiladilar. Dildorning Nizomjonga murojaat qilgandagi tortinchoqligi, *"siz"*lab gapirishi va uning sog‘lig‘idan xavotir olib aytgan yumshoq so‘zlari o‘zbek qiziga xos ibo va hayoning lisoniy ko‘rinishidir.

• Azizxon va Lutfinisa munosabatlaridagi lutf: Azizxon tashqi ko‘rinishidan sho‘x, to‘polonchi va jaydari yigit bo‘lsa-da, Lutfi bilan gaplashganda nutqi keskin o‘zgaradi. Uning qo‘pol xatti-harakatlari o‘rnini mayin lutf, hazil aralash hurmat va g‘amxo‘rlik egallaydi. Bu holat xushmuomalalik birliklarining inson xarakteridagi eng nozik tuyg‘ularni uyg‘otish kuchiga ega ekanligini isbotlaydi.

Said Ahmad — o‘zbek adabiyotida hajv va yumor ustasi. Yozuvchi "Ufq" romanida xushmuomalalik birliklarini ba’zan o‘zining asl ma’nosiga teskari ma’noda — kesatiq va piching (ironiya) yaratish uchun ham qo‘llaydi:

• Masalan, Ummatali ota to‘polonchi yigitlarga qarata "E, chavandoz paxlavonlar, otlaringni aravaga qo‘shinglar. E, sadqai polvon ketlaring!" (18-bet) deganida, tashqi ko‘rinishidan maqtovga o‘xshash "chavandoz paxlavonlar" murojaati aslida yigitlarning uyatli ishini fosh etuvchi yumshoq tanbeh vazifasini bajaradi.

• Xuddi shuningdek, o‘g‘liga qarata aytilgan "Senga polvonlikni o‘rgatgan Hojimuqondan o‘rgildim!" (18-bet) jumlasidagi "o‘rgildim" so‘zi mehrni emas, balki otaning achchiqlanishi va kinoyasini ifodalaydi. Bunday usul badiiy matnning xalqchilligini va o‘qishliligini ta’minlaydi.

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi matnida qo‘llanilgan xushmuomalalik birliklari, nutq etiketlari va andisha iboralarini tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Qahramonlar xarakterini ochish vazifasi. Asarda xushmuomalalik birliklari

shunchaki nutqiy bezak emas, balki qahramonlarning ichki dunyosi, tarbiyasi va o‘zaro munosabatlarini ochib beruvchi psixologik vositadir. Muallif personajlarning ma’naviy qiyofasini tasvirlashda ularning nutq odobiga rioya qilish darajasidan unumli foydalangan.

2. Ijtimoiy mavqe va hurmat masofasi. Romandagi murojaat birliklari (dadasi, bolaginam, Yo‘ldosh ota, Raimberdi toga) personajlarning jamiyatdagi va oiladagi mavqeyini, yoshi hamda o‘zaro hurmat masofasini aniq belgilab beradi.

3. Harakatli etiket va yumshatish san’ati. Yozuvchi badiiy matnda harakatlar orqali ifodalanadigan xushmuomalalik shakllaridan (qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib uzr so‘rash, ta’zimda turish) hamda jamiyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish noqulay bo‘lgan tushunchalarni yumshatuvchi iboralardan (olamdan o‘tibdilar, og‘ir oyoq odam, pardali qiz) yuksak mahorat bilan foydalangan.

Umumiy xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “Ufq” romani o‘zbek milliy nutq madaniyati va muloqot odobining boy xazinasi bo‘lib, asardagi xushmuomalalik birliklari o‘zbek xalqining og‘ir sinovli davrlarda ham o‘zaro hurmat va insoniylikni saqlab qola olgan ma’naviy qiyofasini badiiy tilda muhrlab bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Said Ahmad." Ufq" (trilogiya). — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.

2. Mahmudov N. "Ma’rifat manzillari". — Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

3. Mahmudov N." O‘qituvchi nutqi madaniyati". — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Safarov Sh. "Pragmalingvistika". — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

5. Mo‘minov S. "O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari". — Toshkent: Fan, 2000.

6. Hakimov M. "O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari". — Toshkent: Akademnashr, 2013.

7. Iskandarova Sh. "O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari". — Samarqand, 1993.

8. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987.